

INSONIYATNI MA'NAVIY RIVOJLANISHI BILAN OILADA FARZAND TARBIYASINING UYG'UNLIGI

¹Abdullayeva Xurshida G`anijon qizi, IV bosqich talabasi

²Safarova Xusniya Aktam qizi, IV bosqich talabasi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

gulinoza.ru@bk.ru

Oila — jamiyatning dur-u gavhari.

V.Gyugo

Annotatsiya: Maqolada insoniyatni ma'naviy rivojlanishi bilan oilada farzand tarbiyasining uyg'unligi haqida so'z yuritilib, unda oila insonni xalol va pokiza bo'lishiga, ilm-fan asoslarini egallashga, beva - bechoralarni qo'llab - quvvatlashga, tabiatni e'zozlashga dav'at etadigan diniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarga alohida e'tibor berishga dav'at etilishi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Oila, inson, halol, pokiza, ilm-fan, beva - bechoralar, tabiatni e'zozlash, diniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlar.

Agar oila ma'nosiz xayot kechirsa, fakat shaxsiy huzur halovoti bilan mashg'ul bo'lsa, agar oilada rahmsizlik va xudbinlik xukm surayotgan bo'lsa, bularning hammasi bolaning ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi, albatta. Shu sababli ota-onalar uchun oila tarbiyasi, avvalo o'z-o'zini tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i kerak. Ota-onalarning yuksak ijtimoiy ongi bolalarda ham shunga mos ong tarkib topishiga yordam beradi.

Farzand – oilaning quvonchi, ota-onaning tayanchi, jamiyatning xayotbaxsh kuchi. Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy bolani «mexri anbar» - uyni yoritadigan va oilaga baxt-quvonch keltiradigan nur deb hisoblagan edi.

Oila insonni xalol va pokiza bo'lishiga, ilm-fan asoslarini egallashga, beva - bechoralarni qo'llab - quvvatlashga, tabiatni e'zozlashga dav'at etadigan diniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarga alohida e'tibor berishga dav'at etadi.

Har bir ota-ona o'z farzandini sevadi. Xech kim ulardan yomon va baxtsiz insonlar yetishib chiqishini istamaydi. Farzandning xar bir yutug'i ota-onaning yuragini tog'dek ko'taradi, faxr va g'urur tuyg'ularini vujudga keltiradi. Lekin ota-onaning maqsad va niyatini farzandlar qanday tushunadilar, bu maksadlarni amalga oshirish uchun ular qanday yo'l va vositalardan foydalanadilar, bular nihoyatda murakkab masalalardir.

Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Ota-ona — san'atkor, bola — san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan saqlab kelayotgan milliy urf-odatlarimiz, an'analарimiz (bola tarbiyasida ota-onadan tashqari, buvi-buva, qarindosh-urug', mahallaning ham ta'siri) bu borada katta ahamiyatga ega. Lekin ba'zan oilaning tarbiyaviy

vazifasining susayishi va targ'ibot-tashviqot ishlarining kamligi natijasida oila a'zolari xulqida yomon odatlarning (ichish, chekish, narkomaniya, turli diniy oqimlar ta'siriga berilish, ma'naviy buzuqlik yo'lga kirish) paydo bo'lishi tashvishlanarli hollardan biridir. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining mazkur vazifasi darajasiga kiradi.

Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolar. Bunday kelishmovchiliklar uchun zamin bo'lib quyidagilar xizmat qiladi.

1. Dunyoqarashlar orasidagi mavjud farqning hisobga olinmasligi.

2. Yoshlarning bo'sh vaqtini mustaqil tashkil yetishi, do'stlar tanlashdagi mustaqilligi, hissiyot sohasidagi mustaqilligi, modaga, bugungi kun talabiga mos kiyinishi, kasb tanlashdagi mustaqilligi, umr yo'ldoshi tanlashda mustaqillik uchun ota-onalari bilan ba'zan kurash olib borishning xush kelmasligi.

3. Ota-onalar ichkilikka ruju qo'yishi yoki or-nomusni yig'ishtirib qo'yib, buzuqchilik qilishi.

4. Ba'zi bolalarni mehnat qilishga o'rgatilmaganligi va buning oqibatida yengil-yelpi hayot kechirishga o'rganib qolishi.

5. Ayrim yoshlarning farzandlik burchini unutib qo'yishi va hokazo.

6. Ota-onalarning psixologik-pedagogik bilim saviyalari yetarli darajada emasligi natijasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar. Ota-onalar va bolalar munosabatiga oid yuqoridagi kabi kamchiliklar natijasida oiladan halovat yo'qoladi, o'rta sovuqchilik tushadi.

Ota-onasining oilasida ko'rgan-kechirganlari bolaning bo'lg'usi oilasi, undagi er-xotin munosabatlari, farzandlar tarbiyasi, qarindosh-urug'lar bilan bo'ladigan murakkab o'zaro aloqalarning qanday kechishini belgilovchi muhim omildir. Ushbu omilning ta'sirini batafsil o'rgangan olimlardan biri N.Pezeshkian (1993) bo'lib, u bunday ta'sirchanlikning 3 jihatini alohida ajratadi:

- turli stresslarga nisbatan munosabat;

- hissiyotlarga beriluvchanlik va uning oqibatlari – ijtimoiy xatti-harakat me'yorlari;

- oilaviy munosabatlar.

Muloqot yoki bevosita muomala shaklida odam ko'proq turli suhbatdoshlarni topib, ular bilan kirishib ketish orqali yoki, aksincha, o'zini yolg'izlikka mahkum yetish orqali stressni yengillatish usuli bo'lsa, oxirgi yo'l – xayolga berilish, ya'ni, real harakatlarni ramziy taassurotdagi obrazlar bilan almashtirish hisobiga tangliklardan uzoqlashishdir.

Hissiyotlarga berilish hamda uni ijtimoiy xatti-harakat normalariga muvofiqlashtirish – bu ko'rgan-kechirgan hissiyotlar va xulq namunalari to'g'risidagi tasavvurlar. Pezeshkian bevosita hissiy-emotsional normalarga sevgi-muhabbatni, ishonch, umid, sabr-qanoat, o'zgalarga e'tiborli bo'lish, o'zgalalar bilan yaqin samimiy munosabatlarga kirisha olish, e'tiqodlilik, diniy hissiyotlarni kiritadi.

Адабиётлар рўйхати

1. Акрамова Ф. А. Оилада муомалани ташкил этиш психологияси. Т.: «Шамс АСА», 2006, — 90 б.
2. Каримова В. М., Акрамова Ф. А. Психология, Т., 2000. —

172 б.

3. Каримова В. М. Оилавий ҳаёт психологияси. Т.— 2006. —

142 б.

4. Qarshiboyeva G. Ozligingni angla. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-52.

5. Abdurasulov R., Qarshiboyeva G. Психологик маслахат. Архив Научных Публикаций JSPI.

6. Qarshiboyeva, G. (2021). The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

7. Абдурасулов, Р. А., & Каршибоева, Г. А. Психологик тренинг асослари. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент—2019 йил.

8. Шоумаров Ғ. Б., Соғинов Н. А. Эр-хотин орасидаги низоларнинг этнопсихологик хусусиятлари. Ўзбек оиласининг этнопсихологик хусусиятлари. Илмий ишлар тўплами. Тошкент, 1993. — 11—25 б.

9. Эйдемиллер Э. Г., Юстетский В. В. Семейная психотерапия. — Л., 1989. — 192 с.